



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**IXTISOSLASHTIRILGAN SAVDO MAJMUALARINI MOLİYAVIY RESURLARINI
SHAKLLANTIRISH VA ISHLATISH YO‘NALISHLARI – BEK BARAKA SAVDO
MAJMUASI MISOLIDA**

**НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ
РЕСУРСОВ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ТОРГОВЫХ КОМПЛЕКСОВ – НА
ПРИМЕРЕ ТОРГОВОГО КОМПЛЕКСА «БЕК БАРАКА»**

**DIRECTIONS FOR THE FORMATION AND USE OF FINANCIAL RESOURCES OF
SPECIALIZED TRADE COMPLEXES – ON THE EXAMPLE OF THE BEK BARAKA
TRADE COMPLEX**

Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich

O‘zbekiston Milliy universiteti Moliya va kredit kafedrası mudiri, i.f.d., professor

Oxunjonova Kamola Komiljon qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – “Bek Baraka” savdo majmuasi misolida yoritilgan. Bugungi kunda davlat ishtirokidagi savdo majmualarini transformatsiya qilish va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish iqtisodiy islohotlarning muhim masalalaridan hisoblanadi. Maqolaning aynan tahlil va natijalar qismida ushbu savdo majmuasining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari keltirilgan, va xulosa va takliflar qismida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: “Bek Baraka”, moliyaviy resurslar, dividend, sof foyda, sof tushum, aktivlar, aktivlar rentabelligi, sotuv rentabelligi, diversifikatsiya.

В данной статье рассматриваются вопросы формирования и использования финансовых ресурсов специализированных торговых комплексов на примере торгового комплекса «Bek Baraka». В настоящее время трансформация торговых комплексов с государственным участием и повышение эффективности использования финансовых ресурсов являются одними из важных направлений экономических реформ. В аналитической части и разделе результатов статьи приведены основные финансовые показатели данного торгового комплекса, а в заключении и разделе рекомендаций предложены соответствующие выводы и практические предложения.

Ключевые слова: «Bek Baraka», финансовые ресурсы, дивиденды, чистая прибыль, чистая выручка, активы, рентабельность активов, рентабельность продаж, диверсификация.

This article examines the formation and utilization of financial resources in specialized trade complexes, using the example of the “Bek Baraka” trade complex. At present, the transformation of state-participated trade complexes and improving the efficiency of financial resource utilization are among the key issues of economic reforms. In the analysis and results section of the article, the main financial indicators of this trade complex are presented, while in the conclusion and recommendations section, relevant suggestions are provided.

Keywords: “Bek Baraka”, financial resources, dividends, net profit, net income / net revenue, assets, return on Assets (ROA), return on Sales (ROS), diversification.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktyabrda “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-

tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni imzolangan. Bunga ko‘ra, “Bek Baraka” MCHJ aynan ushbu farmon asosida transformatsiya qilinadigan va davlat ulushi sotiladigan strategik obyektlar ro‘yxatiga kiritilgan [1].


Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda davlat ishtirokida amalga oshadigan yirik korxonalarning moliyaviy mustaqilligiga erishish va ularni bozor tamoyillari asosida transformatsiya qilish ustuvor maqsad qilib belgilangan. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan savdo majmualarining moliyaviy resurslarini shakllantirish manbalarini diversifikatsiya qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, “Bek Baraka ixtisoslashtirilgan savdo majmuasi” MCHJ nafaqat yirik soliq to‘lovchi sub’yekt, balki minglab kichik tadbirkorlik sub’yektlari faoliyat yuritadigan obyekt hisoblanadi, va u tadbirkorlik muhitining rivojlanishiga sezilarli darajada ta‘sir qiladi.

Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini o‘rganishda ko‘plab O‘zbekistonlik va Xorijlik olimlar o‘z hissalarini qo‘shganlar. Jumladan, Mo‘minov A.G. (2022) – Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda savdo majmualarining o‘rnini “Bek Baraka” misolida yoritib bergan, va shuningdek muallif majmuaning hududiy iqtisodiyotga ta‘siri va tadbirkorlar uchun yaratilgan sharoitlarni tahlil qilgan [2]. Rasulov F. (2023) – “Bozorlar va savdo majmualarining moliyaviy barqarorligini baholash indikatorlari” nomli maqolasida savdo majmualarining moliyaviy resurslarini (rentabellik, likvidlik) qanday hisoblash metodikasi berilgan [3]. Ergashxodjayeva Sh.J. (2021) – O‘zbekistonda savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyoti bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida savdo majmualarining raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalarining o‘rnini yoritib bergan. Muallif yirik bozor turlarida moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash orqali xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash mexanizmlarini asoslagan[4]. Tursunov Y.P. (2022) – “Savdo korxonalarida aktivlarni boshqarish samaradorligi” nomli ishida savdo majmualarining munitsipal byudjetni shakllantirishdagi strategik ahamiyatini tahlil qilgan. U aynan davlat ishtirokidagi savdo korxonalarida dividend siyosatini takomillashtirish va moliyaviy shaffoflikni ta‘minlash zarurligini ta‘kidlagan[5]. Xorijlik olimlardan Barry Berman & Joel R.Evans (2018) – “Retail Management: A Strategic Approach” maqolasida savdo majmualarini operatsion xarajatlarni kamaytirish va resurslarni to‘g‘ri taqsimlash bo‘yicha dunyo tan olgan modelni taklif qilishgan [6]. Shu qatorda Arustamov E.A. (2021) – “Экономика предприятия (торговля)” maqolasida MDH davlatlari misolida savdo komplekslarining aylanma mablag‘larini boshqarish mexanizmlarini yoritgan [7]. Michael Levy & Barton A. Weitz (2019) – O‘zlarining dunyoga mashhur “Retailing Management” asarida savdo majmualarining moliyaviy strategiya modeli (Strategic Profit Model) ni ishlab chiqqanlar. Bu model aktivlar aylanmasi va foyda marjasini o‘zaro bog‘lagan holda savdo majmuasining rentabelligini baholash imkonini beradi [8]. Philip Kotler (2021) – Savdo infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha o‘z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida an‘anaviy bozorlarning transformatsiyasi masalasini ko‘targan. Muallif savdo komplekslarida moliyaviy resurslarni IT-texnologiyalarga yo‘naltirish orqali operatsion xarajatlarni 15-20% gacha kamaytirish mumkinligini isbotlagan [9].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, soha olimlari asosan umumiy savdo korxonalarining iqtisodiyotiga yo‘naltirib, o‘z ishlarini amalga oshirishgan. Lekin, aynan ixtisoslashtirilgan bozorlarning, xususan, “Bek Baraka” ning moliyaviy resurslarini dinamik tahlil qilish va ularning hududiy byudjet tushumlaridagi rolini baholash bo‘yicha kompleks yondashuv zarur.

Mazkur maqola iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishning ilmiy – obyektivlik tamoyillari asosida yoritildi. Tadqiqot objekti sifatida “Bek Baraka ixtisoslashtirilgan savdo majmuasi” MCHJ ning 2020-2024-yillardagi moliyaviy xo‘jalik faoliyati tanlab olindi.

Ushbu grafikda “Bek Baraka ixtisoslashtirilgan savdo majmuasi” ning 2020-2024-yillardagi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari – sof foyda, sof tushum, jami aktivlar va byudjetga to‘lovlar (mlrd so‘mda) tahlil qilingan.



1-rasm. "Bek Baraka ixtisoslashtirilgan savdo majmuasi" MCHJ ning 2020-2024-yillardagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi[10].

2020-yilda ushbu MCHJ ning sof tushumi 32,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich deyarli ikki baravar o'sib, 61,5 mlrd so'mni tashkil qilgan. Shuningdek sof foyda ham 6,8 mlrd so'mdan 18,2 mlrd so'mga ko'tarilgan. Ta'kidlash joizki, ushbu ko'rsatkich sof tushumga qaraganda tezroq o'sgan, bu esa moliyaviy samaradorlik oshganini ko'rsatadi. Bu savdo majmuasining jami aktivlari 2020-yilda 94,2 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 142 mlrd ga yetadi. Shu qatorda byudjetga to'lovlar ya'ni dividend ham mos ravishda 3,4 mlrd so'mdan 9,1 mlrd so'mga yetadi. Umuman olganda, "Bek Baraka" savdo majmuasi 2020-2024-yillarda yuqoridagi 4 xil yo'nalishda ham ijobiy o'sishga erishgan. 2024-yilga kelib u nafaqat aktivlarini oshiradi, balki davlat byudjetiga to'lovlarni 3 baravarga yaqin miqdorda oshirishga erishdi.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar "Bek Baraka" MCHJning moliyaviy holati miqdoriy jihatdan o'sganini tasdiqlaydi. Biroq, korxonaga birlashtirilgan moliyaviy resurslar va aktivlardan qanchalik samarali foydalanilganini aniqlash uchun rentabellik koeffitsiyentlari tahliliga e'tibor qaratish lozim.

Aktivlar rentabelligi (ROA— Return on Assets). Ushbu ko'rsatkich korxonaning har bir so'mlik aktivi qancha miqdorda sof foyda keltirayotganini ifodalaydi. Uni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$ROA = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami aktivlar}} \times 100\% [11].$$

Keltirilgan ma'lumotlar asosida 2020-2024-yillardagi ROA ni hisoblashimiz mumkin.

$$\text{Masalan, 2020-yilda: } ROA = \frac{6,8}{94,2} \times 100\% \approx 7,2\%;$$

$$2024-yilda: ROA = \frac{18,2}{142,0} \times 100\% \approx 12,8\%.$$

Aktivlar rentabelligining 7,2% dan 12,8% gacha ko'tarilishi korxonaning o'z tasarrufidagi moddiy va nomoddiy resurslardan foydalanish sifati yaxshilanganini anglatadi. Bu o'sish korxona aktivlari hajmining kengayishi bilan birga, ularning qaytimi ham sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi.

Shu qatorda Sotuv rentabelligi (ROS— Return on Sales) ni hisoblash orqali Sof foydaning tushumga nisbatan tezroq o'sishi, sotuv samaradorligi oshganini tushunishimiz mumkin:

$$ROS = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Sof tushum}} \times 100\% [11].$$

$$\text{Masalan, 2020-yilda: } ROS = \frac{6,8}{32,4} \times 100\% \approx 20,9\%;$$

$$2024-yilda: ROS = \frac{18,2}{61,5} \times 100\% \approx 29,6\%.$$

Har bir so‘mlik sotuvdan olinadigan foydaning 20,9% dan 29,6% ga ko‘tarilishi korxonaning operatsion xarajatlarni optimallashtirishga erishganini va tijorat faoliyatining samaradorligi oshganini tasdiqlaydi.

Davlat byudjetiga to‘lovlar (dividendlar) 3,4 mlrd so‘mdan 9,1 mlrd so‘mga yetishi nafaqat korxonaning boyishi, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ortishini ko‘rsatadi. Dividend to‘lovlarining sof foydadagi ulushini tahlil qilsak, korxona o‘z foydasining qariyb 50% qismini byudjetga yo‘naltirayotgani ma‘lum bo‘ladi. Bu esa “Bek Baraka” MCHJni Toshkent viloyati iqtisodiy barqarorligini ta‘minlovchi yirik donor korxonalardan biri sifatida tavsiflaydi.

Iqtisodiyotda savdo majmualarini moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, va xavf – xatlardan holi qilish bosh masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, “Bek Baraka” savdo majmuasi ham 5yil ichida moliyaviy barqarorlikka erisha olganini uning sof foydasi 6,8 mlrd so‘mdan 18,2 mlrd so‘mga chiqqanidan ko‘rishimiz mumkin. Bu savdo majmuasini o‘zini-o‘zi moliyalashtira olishini bildiradi, shu qatorda uning aktivlari va davlat ulushi (dividendlari) ham keskin ko‘tarildi. Bulardan kelib chiqib ushbu takliflarni ilgari surishimiz mumkin. Birinchisi bu raqamli transformatsiya bo‘lib, savdo majmuasida ijara to‘lovlari va boshqa xizmatlar uchun moliyaviy hisoblarni to‘liq avtomatlashtirilgan “Smart Market” tizimiga o‘tkazish. Bu mablag‘larni shaffofligini ta‘minlash uchun xizmat qiladi. Ikkinchisi esa xarajatlarni diversifikatsiya qilish, bu usul faqat ijara tushumlariga bog‘lanib qolmasdan, majmua hududida zamonaviy logistika markazlarini tashkil qilish. Bu orqali qo‘shimcha moliyaviy resurslar oqimini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktyabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6096-sonli Farmoni. // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. Mo‘minov A.G. Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda savdo majmualarining o‘rni. // “Iqtisodiyot va ta‘lim” jurnali. № 4, 2022-yil.
3. Rasulov F. Bozorlar va savdo majmualarining moliyaviy barqarorligini baholash. // “Moliya” ilmiy jurnali. № 2, 2023-yil.
4. Ergashxodjayeva Sh.J. Savdo iqtisodiyoti: Darslik. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2021. – 286 b.
5. Tursunov Y.P. Savdo korxonalarida aktivlarni boshqarish samaradorligi. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – Toshkent, 2022. – № 4. – 45-52-betlar.
6. Berman B., Evans J.R. Retail Management: A Strategic Approach. 13th Edition. — Pearson Education, 2018.
7. Арустамов Э.А. Экономика предприятия (торговля). Учебник. — М.: Дашков и К, 2021.
8. Levy M., Weitz B.A., Grewal D. Retailing Management. 10th edition. – New York: McGraw-Hill Education, 2019. – 736 p.
9. Kotler P., Armstrong G. Principles of Marketing. 18th Global Edition. – London: Pearson Education, 2021. – 750 p.
10. O‘zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining rasmiy portali ma‘lumotlari. “Bek Baraka ixtisoslashtirilgan savdo majmuasi” MCHJ moliyaviy hisobotlari (2020-2024). URL: <https://davaktiv.uz/uz/reestr>
11. Vahobov A.V., Ishonqulov N.F. Iqtisodiy tahlil: Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 350 b.